kelyapmiz, - deydi "Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali direktori o'rinnbosari Vahob Halimov. - Nati-jada aholiga zarur miqdordagi tabiiy gazni yetkazib berishning imkon bo'lmayapti. Bugungi kunda amalda bo'lib turgan tariflari haqiqiy tannarxni qoplamaydi va soha subsidiyalar eva-ziga faoliyat yuritib kelmoqda. Agar davlat budjetidan beriladigan subsidiyalar to'xtatilsa, tarmoqlar eskiligicha qolaveradi, uzatish quvvatlarini yangilanmaydi. Tabiiy gaz va elektr energiyasini ishlab chiqarish ko'paymaydi va uzhishlar soni, muddati kundan-kunga ortib boraveradi.

Anjumanda jurnalistlarning savolari soha mas'ullari batafsil javob berishdi.

**Dilmurod TO'XTAYEV.**

## Insoniy fazilatlar targ'ibotchisi edi

Irisboy Jo'rayev bilan hamqishloq, hamkasb sifa-tida birga ishlaganmiz. U kishi o'z davrining o'qimishli, fidoyi insonlardan biri edi. Hayotini maz-munli o'tkazib, umrini baxtiyor yashab, olijanob fazilatlari bilan o'zidan yaxshi nom, yorqin xotira, iibrat olishga arzигlik fazilatlar qoldirdi. Shogirdlari, teng-to'shlari, barcha tanigan-bilganlar hozir ham gap-gashtak, gurunglarda ustozni faxr bilan eslaymiz.

El-yurt orasida yuksak hurmat-e'tiborga ega bo'lgan, har qanday davranni dilkash gurungi bilan o'ziga qarata olgan bu inson kimyo fani bilimdoni, tajribali uslubchi, mehribon ustoz, yaqin maslahatqo'y, insoniy fazilatlar targ'ibotchisi edi...

I.Jo'rayev 1946-yil Nurobod tumanining Boshquduq qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Ahmad aka urushga ketib, halok bo'lgan. Otasidan erta ayirlagan Irisboy emizikli paytidayoq onasi Oyniz opa qo'lida yetim qoldi. Tumanning Ulus qishlog'idagi maktabni tutgatgandan so'ng Samarqand davlat universitetining kimyo fakulteti kechki bo'limida tahsil oldi. O'qish davrida Samarqand shahridagi maktablarda kimyo fani o'qituvchisi bo'lib ishlab, o'sha davr maorif sohasi rahbarlari nazariga tushdi. Ularning kuchli bilan 1969-yilda viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga uslubchi sifa-tida ishga olindi. Harbiy xizmatni o'tab qaytgach, viloyat pedagog xodimlar malakasini oshirish institutida o'qituvchi, keyinchalik kafedra mudiri vazifalarida faoliyat ko'rsatdi. So'ng Past Darg'omi tumanini maorif bo'limi uslubiy birlashmasi boshlig'i lavozimiga ishga taklif etildi. Bu dargohda ma'lum muddat ishlagandan so'ng faoliyatini Sovetobod tumanini (hozirgi Nurobod tumanini) tashkil etilishi munosabati bilan tuman maorif bo'limi uslubiy birlashma boshlig'i lavozimida davom ettirdi. Shu davrda Iris Ahmedovich halol

mehnati bilan Nurobod tumani maorif tizimini tashkil etish yo'lida sidqidildan xizmat qildi.

Yaxshi insonni, uning ijobji sifat va fazilatlarini nafaqat hamqishloqlari, balki uzoq-yaqindan bilgan odamlar ham ko'p eslaydi.

- Iris boboni har eslaganimda ko'z oldimda bosiq, sermulohaza, har bir gapini salmolab aytadigan, xushefe'va olijanob odam gavdanadi, - deydi O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi Jamoliddin Hotamov. - U kishi bilan bundan o'n yilcha muqaddam Navoiy viloyati "Do'stlik bayrog'i" gazetasi muxbirini vazifasida ishlagan paytalarin tanishganman.

Keyinchalik Iris boboning ko'p suhbatlarini oldim. Bir necha bor qishlog'idagi uyida mehmon bo'lganman. Har borganimiza momomiz ikkalasi bog'laridagi yong'oq, olma, anor kabi mevalardan ulashardi. Otaxon hech qachon bizdan qimmatli maslahatlarini ayamasdi. Turmushning achchiq-chuchugini ko'p totganidan hayotiy tajribasiga suyanib aytgan pand-nasihatlari umrim mobaynida ko'p asqotdi. Taajublanarli, kim bilan gurung qilgan bo'lsam, barchasi Iris bobo haqida faqat ijobji ta'rif bergan. Bundan shu xulosaga kelganmani, demak, otaxon butun umr yaxshi inson bo'lib o'tgan va o'zidan yaxshi nom qoldirgan.

Iris bobo shahrizimga qadam ranjidi qilsa, albatta, kamaniyo'qlardi. Oxirgi marta Navoiy viloyati endokrinologi-



ya dispanseri shifoxonasida davolanayotganida yo'qladim. Yangi yil arafasi edi. Iris boba juda ham quvoniv ketdi...

I.Jo'rayev turmush o'trog'i Hanifa aya bilan 8 nafar farzandni ulg'aytirib, uylu-joyli qildi, nufuzli olyi o'quv yurtlarida o'qitdi, el koriga yaraydigan farzandlar qilib tarbiyalid.

Ustoz jamiyatni olg'a boshlovchi va uning ertangi kunini ta'minovchi, ta'bir joiz bo'lsa, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi bir yo'chi yulduz. Shu sababli doimo jamiyat rivojida ustozlarning o'rni beqiyos. Chunki ular yosh avlodga nafaqat ta'lim beradi, balki yosh shogirdlari qo'lidan tutib, hayot saboqlarini, insoniy fazilatlarini chin yurakdan qalbiga joyladiy, yaxshi duolar bilan nurli manzillarga olib boradigan katta yo'lda kuzatib qo'yadi. Shuning uchun bu kasb egalari haqida "Ustoz otangdek ulug'", deya e'tirof qilinadi.

Shafqatsiz o'lim qadrondimizni 76 yoshida oramizdan olib ketdi. O'zidan egzu ishlari bilan yaxshi iz qoldirgan, Nurobod tumanini rovijoilantirishga beqiyos hissa qo'shgan, hudud xalq ta'limi sohasiga ilk tamal toshini qo'yib, odamlar ma'rifatining yuksalishi uchun xizmat qilgan Irisboy Jo'rayevning xotirasini qalbizimda mangu yashaydi.

**Boymat QO'CHQOROV, mehnat faxriysi.**

**REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lонlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56**

### DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ul-anuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Talibova Uzro Turabovnaga (2021-yil 9-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun mero ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ul-anuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Melikov Uktamga (2022-yil 13-novabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun mero ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ul-anuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Xakimov Miskalga (2007-yil 22-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun mero ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ul-anuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Bodirov Abduraxmon Javunboyevichga (2020-yil 10-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun mero ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ul-anuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Ruziyev Urakga (2001-yil 24-aprel-da vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun mero ishi

ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ul-anuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloyevich notarial idorasida marhum Artikov Xikmatulaga (2006-yil 6-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun mero ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ul-anuvchi notarius Jo'rayev Mumin Ne'matjonovich notarial idorasida marhum Usmonova Ugulga (2020-yil 3-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun mero ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mumin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Soniy ko'chasi, 1-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ul-anuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Negmatova Roxat Muminovnaga (2020-yil 7-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun mero ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ul-anuvchi notarius Aminov Mashurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Razakov Abdurafiq Abdukarimovichga (2021-yil 11-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun mero ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aminov Mashurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Sug'diyona maskani, 14/12-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ul-anuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Zamanov Yuliy Rifkatovichga (2023-yil 2-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun mero ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyat bilan shug'ul-anuvchi notarius Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Jurayeva Mubora Tursunboyevnaga (2013-yil 15-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun

Erta tongda ko'zimizni mayin musiqa sadolari ostida ochamiz, "budilnik" jiringlaydi. Nonushta ham sokin musiqa bilan mazaliroq tuyuladi. Qo'l telefonida musiqa, mashinada musiqa, xordiq chiqarish uchun musiqa, to'yu tomoshalar, bayramlar-ku, usiz o'tmaydi. Madaniy hayotimizning ajralmas bu unsurida katta kuch va imkoniyat mujassam - insonlar tafakkuriga ta'sir qilish imkoniyati.

Ayni mavzuda mulohaza yuritishimizga turki bo'lgan ayrim holatlar haqida: meni viloyatimizdagi maktablardan birining telegram guruhiga qo'shishdi. Unda o'quvchi-yoshlarning madaniy tadbirlardagi chiqishlari joylashtirilar ekan. Kuzatdim, xorijiy tildagi qo'shiqlar ijrosi va raqsular ham bisyor. Biroq bir o'quvchining o'zga tilda aytgan qo'shig'i hech bir qoligiga to'g'ri kelmasdi. Tilni bilmaydiganlar uchun yoqimli ohang. Ammo mazmuni... E'tirozindan so'ng guruhdan "surgun" qilindim. Hech kim, hatto o'qituvchilar ham "Bu to'g'ri aytypoti, yoshi bola oylnoling qomati haqida qo'shig'i aytmaydi-ku", demadi.

Bu-ku, dunyoning "kir" ishlardan bexabar yosolar ekan, yaqin-yaqingacha ayrim esini tanigan odamlarimiz ham mashinasida angliyalik "mashhur" xonadaning noodatiy shahvoni hirsularni madh etuvchi qo'shig'i balandlatib eshitib yurgani yolg'onmi? Uning fonida video montaj qilib, kulqiga qolgan blogerlar-chi? Kimlarni, nimalarni madh etyapmiz o'zi?

#### NOMI O'ZBEKCHA, ESHITILISHI...

Miliylikni qadrlaydiganlarga "zamondan ortda qolgan", degan tamg'anı bosamiz. Mustabid tuzumdan esdalik qarash, barcha milliy qadriyatlarni eskilik sargitiga chiqargan g'oya ta'siri bu. Afsuski, undan haligacha qutulganimiz yo'q. Yomon bo'lsa ham chetniki bo'lsin deymiz. Imkoni bo'lsa, ust-bosh Turkiyaniga, qo'l telefoni Amerikanikni, soit Shveysariyaniki bo'lishi kerak. Oshni uya ham yesa bo'ladi, ko'chaga chiqsak, bolalarga KFS, pitsa, xot-dog olib beramiz. Zararli bo'sha, nima qilibdi. Adibimiz Said Ahmadning "Kelinlar xo'roqzand xorijnikni desa, yotib yalaydi", degan kinoyali ibora bugun ham o'z ahamiyatini yo'qtomagandek.

Bu gap faqat moddiyatiga taalluqli emas. "Ommaviy madaniyat" va u orqali singdirilayotgan makfura "xo'rozqand"larning eng xavfisi hisoblanadi. San'at esa uni bizga o'rabi-chirmab, ishtahani ochanlig shaklda yetkazayotgan quroqla aylangan. O'z-o'zimizga qarshi ishlayotgan qurol.

— Igli badiiy kengash bo'lar edi, - deydi O'zbekiston davlat filarmoniysi viloyat bo'limi rahbari Odil Rustamov. — San'atkorlar tomonidan tayyorlangan har qanday "mahsulot" avval unda tahlii qilinib, ruxsat berilgina, ommaga chiqarilardi. Balki xalqimizning o'lamas asarlari yaratilishi shu "tegimron" sababchi bo'lgandir. Bugun nazorat deyarli yo'q. Istagan inson o'zini san'atkor, deb e'lon qilyapti va "mahsulot"ini ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatypdi. Nazorat haqida gap o'chsgiz, "senzurachi", "eski tuzum tarafodi"ga chiqarishadi. O'zlariga qo'yib bersangiz, buzuqlikni ham zamonavilik, deb ataydi. Xonandalarimiz aytayotgan qo'shiqlari eshitishlasi hisoblasizmi? Yarmi xorijdan ko'chirilgan, qolgan yarmi tuturiqsi. Dard yo'q, mazmun yo'q she'rlarida.

Ijtimoiy tarmoqda "o'zbek xit qo'shiqlari", deya qidiruv berib, birinchi veb-saytga kirdik. Ro'yxatda "Kuyov bo'lish mazza-da", "Kayf-kayf", "Sovg'a qil", "Yuragim onangni uyimas", "Malikam", "Qizil ko'ylagim sen uchun emas" degan nomlarni o'qidik. Ikkinchisi, uchinchi veb-saytda ham shunga o'xshash estrada qo'shiqlari "top"ga chiqqan. Bari sevgi va ayrliq, kaytu safo, maishiy ikir-chikirlar haqida.

Shularidin birining matniga qarang:

*Qizil ko'ylagim sen uchun emas,  
Uzun sochlari, sen uchun emas.  
Yozgan she'rlaring o'zinginki emas,*

*Sening sevging ham men uchun emas.*

*Senga bergen savolimga javob bermaysan,*

*Hech bo'limasa, telegramdan yozib qo'ymaysan...*

Bu nima degani? Kishini tafakkurga undaydigan, ruhiyati oziqlanitiradigan kuchli qo'shiqlar qani? Nomigina o'zbekcha, ammo eshitilishi ajnabi bo'lgan bunday qo'shiqlarga olinayotgan kliplarni-ku tariflashga hojat yo'q.

Mavzu doirasida odamlarning fikrlerini o'rganan ekanniz, ularning orasida talab bo'limasa, taklif bo'limaydi, deganlar ham bo'ldi. Bu iqtisodiyotda to'g'ridir, biroq madaniyat borasida boshqacha bo'lishi kerak nazarimizda. Sababi inson xato qilishga moyil. Ko'ngiliga qo'yib bersak, nimalarni tusamaydi? Agar madaniyat bositgan layklarga qarab rang olaversa, eng jirkanchi ijod namunalari "top"ga chiqishi shubhasiz. Ishonmasangiz, ijtimoiy tarmoqda tajriba o'tkazib ko'ring, "Odamlarni boshqarayotgan ohanglar" yoki "Xiyonatkor kelin taqdiri", qay bir sarlavhal maqola yoki video ko'proq ko'riladi deb o'ylaysiz? Natija oldindan aniq. Shunday ekan, madaniyat, xususan, musiqa san'ati ham avalo, odamlarning manfaatiga xizmat qilishi kerak. San'at tomoshabinga ixtisoslashishi emas, balki tomoshabinni ixtisoslashirishi lozim.

#### "WELCOME" YOKI "ДОБРО ПОЖАЛОВАТЬ"

Aholisining asosiy qismi o'zbek, davlat tili o'zbek tili bo'lgan mamlakatning chekka bir qishlog'ida ochilgan do'kon peshtoqida ham "Welcome" yoki "Добро пожаловать" degan yozuvni ko'rish mumkin. Bu q'alati emasmi? "Open", "Close", "Открыто", "Закрыто" shular jumlasidan. Bunga e'tibor ham bermaymiz,

# Odamlarni boshqarayotgan OHANGLAR

Yoxud tomoshabin qachon ixtisoslashadi?



shundaymi? Sababi, bizning tafakkurimiz shu tildagi madaniyatga to'yingan. Va bu to'ynish asta-sekinlik bilan, yillar davomida ortib bormoqda.

Garvard universiteti professori Jozef Nay o'zining "Yumshoq kuch" asarida "ommaviy madaniyat"ning siyosi ta'siri haqda to'xtalar ekan, amerikalik tarixchi, shoir va folklorshunos Karl Sendburgning 1961-yildagi nutqidan itibosib keltiradi. Unda shunday deyilgan: "Golivud Garvarddan ustunmi? Javob quydigicha: Garvard kabi benugson emas, lekin shunga qaramay ahamiyat yatlairoq". Bu madaniyat har qanday shaklda bo'lishdi qan qat'i nazar, xoh u iboyib bo'ladimi yoki teskar, o'z xaridorini topishi va bu ma'lum bir siyosiy kuchlarning manfaatiga xizmat qilishini anglatadi. Muallif buni "yumshoq kuch", deb ataydi. Uning asosiy vositalari esa kino, san'at, adabiyot, ilm-fan hamda axborot hisobnadi.

Ayni fikr faqat Amerikaga taalluqli emas. Bugungi geosiyoysi makonda makfuraviy ta'sir obyektlari haddan ziyyod bo'p. Misol uchun, turkcha seriallar ishqibozlari Istanbulda, zamonaviy kinolarni xush ko'ruchilar Yevropada, rus qo'shiqlari ixlosmandlari Moskvada yashashni orzu qiladi. Tomoshabin hatto ularning tilini bilmasligi ham mumkin, ammo qalb yaqinligini sezadi. Qo'shibiada ular o'sha kuchning har qanday siyosatiga ko'z yumaadi, g'oyalalarini qo'llab-quvvatlaydi. Madaniyatimizdagi bu bo'shiqni to'dirdimas ekanmiz, buni boshqalar to'ldiradi va biz ularning manfaatiga xizmat qilamiz.

#### MA'NAVİ TAHİDİĞİ QARŞI KURASHADİĞİ "ARMIYA" MİZ BORMI?

Bu shunday tahdidiki, uni kuch bilan yengib bo'lmaydi. Uning uchun chegaralar yo'q va istaymizmi-yo'qmi, u bilan doimiy mulog'otda bo'lamiz. Xo'sh, unga qarshi qanday kurashish mumkin, dersiz? Albatta, o'z quroli bilan – madaniyat orqali. Faqat uni ham to'g'ri qo'llash masalasi bor. Bunda eng katta mas'uliyat mahalliy ijod ahli hamda madaniyatning har bir mahalla, xonadonga kirib borishini ta'minlaydigan madaniyat xodimlari zimsida qolmoqda.

Ayni masalada Prezidentimiz raisligida 2023-yil 22-dekabrda o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytiligan yig'ilishida muhim fikrler bildirilgan edi. Unda mas'ullar oldiga "G'oyaviy-makfuraviy sohada raqobatga tayyormizmi?", "Yoshlarimizning tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi?", degan dolzarb savollar qo'yildi. Yurtboshimiz "Agar biz bu yorug' dunyoda "o'zbek", "o'zbekistonlik", "O'zbekiston" degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart", deya ta'kididi. Yaqin kelajakdag'i vazifalar, maqsadlar aniq qilib tashkil. Endi ularni to'g'ri ijro qilish qoldi.

Viloyatimizda 80 ta madaniyat markazi, 32 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 4 ta davlat teatri, 29 ta badiiy jamao faoliyat yuritadi, - deydi viloyat madaniyat boshqarmasi madaniy faoliyatni rivojlantirish va xalq ijodiyati shu' basi mudiri Valijon Mararov. – Ular Samardangning bugungi madaniy qiyofasini yaratadi. Albatta, tegishli rejalar tuzilgan, har bir xodimga mahalla va tashkilotlar biriktilirgan. Lekin ishni tashkili etish mexanizmi oqsayıpti. Misol uchun, o'tgan yili viloyatimizda turlari darajadagi 1500 va ortiq tadbir o'tkazildi. Ularga tayyorgarlik ko'rish uchun jalb qilingan xodimlar, texnika va mehnat ko'lamini tasavvur qila olasizmi? Besh daqiqalik sahna ko'rinishining o'zida o'nlab ijodkorning mashaqqatli mehnati bor. Bu yil ham yulayimizda tadbirlarga mezbonlik qilishi kutilmoqda. Ijodkorlarning rag'batli ham mehnatiga mos bo'lishi kerak. Yuklama va rag'batning nomutanosisligi ortidan sohada kadrlar qo'nimsizligi yuzaga kelgan. Oliy ma'lumotli mutaxassislar ishni tashlab, boshqa, daromadliroq sohalarga o'tib ketyapti.

Ishonish qiyin, ammo bugun madaniyat markazi xodimining oylik maoshi yuritmidagi mehnatiga haq to'lashning eng kam miqdoriga yaqin ekan. Bu ma'lumotdan keyin ularga "Nega mahallalarga chiqib, saviyali tadbir o'tkazmayapsiz?", degan savolni berish noqaylay. Ozgina iqtidori namoyon bo'lgan qo'shiqchining to'ylardan ortmay qolishi sababi ham shunda. Ular qaynaydi. Biz ham yoshlarga bolalgidan folklor va milliy

odamlarning istagidan kelib chiqib ijod qilinadi. Bu istak bizni qayerga yetaklashi haqida yuqorida qayd etdi.

— Biz o'zimizga yuklatilgan vazifalarini vijdon bajarishga harakat qilyapmiz, - deydi Bulung'ur tumani madaniyat markazi rahbari Bobomurod Ro'ziyev. — Belgilangan reja assosida mahallalarda madaniy tadbirlar o'tkazilyapti. Amroksaksariyat mahallalarda buning uchun yetarli sharoit yo'q. Bu bir muammo bo'lsa, ikinchisi malakali kadrlar yetishmasligi. Maosh kam, qolaversa, madaniy tadbirlarni o'tkazish xizmatlari pullik qilingani bilan ko'p hollarda tekkinga ishlayapmiz. Yaxshi mutaxassislar viloyat markazi yoki Toshkentga ketib qolayti.

Tumanda ishlayotgan 65 nafar madaniyat xodimidan bor-yo'g'i 5 nafari oliv va 5 nafari o'rta-maxsus ma'lumotga ega ekan. Qolganlari maktabni tugatgan. Kadrlar yetishmaydi, borlari ham mutaxassis emas. Bu viloyatimizdagi eng namunalni madaniyat markazlaridan birida vaziyat. Holbuki, madaniyat markazlari to'g'risidagi namunaviy nizomming 5-bandida tumanlar va shaharlar markazlарining har birida bittadan markaziy madaniyat markazlari, qishloq va shaharchalarda aholi soni 7 ming nafar va undan ortiq bo'lganda, markazlar tashkil etish belgilangan. Aholi soni ortib borayotgan bo'lsa, nega tizim kengayish o'rniq torayib, "holisz" lanib boryapti?

Pullik xizmatlar masalasida. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni 29-moddasida madaniyat markazlari ommaviy bayramlar, tomoshalar hamda xalq sayillarini tashkil etish, yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarga ko'ra, ijtimoiy-madaniy bo'sh vaqtini tashkil etish sohasida pulli xizmatlar ko'rsatishi belgilangan. Ya'ni, vazirlar tomonidan tashqilangan arym tadbirlarning tashqari, barcha tadbirlar, xoh uni hokimlik tashkil qisish, xoh xususiy tashkilot, xizmatlar pullik bo'lishi kerak. Bu mablag' o'z navbatida sohanai rivojlantrish, tadbirga jalb qilingan xodimlarni rag'batarilishiga o'rnatirildi. Ayni muammo faqat Bulung'ur tumaniga taalluqli emas. Misol uchun, O'zbekiston davlat filarmoniysi viloyat bo'limi o'tgan yili 150 ta madaniy tadbir o'tkazgan bo'lsa, shunday bor-yo'g'i 17 tasiga pul to'langan. Nima, qonun ishlamaydim? Madaniyat xodimlari nimanning hisobiga faoliyat yuritadi? Madaniy terrorga qarshi birinchi safda turib jang qilishi kerak bo'lgan "askar"larni "och" qoldirishning oqibati nima bo'ldi?

Afsuski, biz faqat oqibatlar bilan kurashib yashayapmiz. Uning tahlili va mulohaza asosida ish yuritisha organmaganimiz. Vaholanki, qarshimizda turgan kuchlar kelgusi 10 yillik uchun ham reja tuzib qo'yani aniq. Prezidentimiz "Bugun ma'naviyat boshqa sohalar o'n qadam oldida yurishi, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak", deganda balki shuni nazarda tutgandir?

#### YOSHLARGA MILLIY CHOLG'UNI ÖRGANISH NEGA KERAK?

— Milliy madaniyatimiz juda boy, uni chetlab o'tib, xorij san'atidan ilhom olishimiz katta xato, - deydi xonanda Valijon Ermatov. — Buning oqibatida qo'shiqlarimizning saviyasi tushib bormoqda. Aksariyat ijodkorlar bugun faqat to'g'itmosha, "diskoteka"larga moslab qo'shiq yaratyapti. To'g'ri, bunday sayoz ashulalarning umri qisqa bo'ladı, biroq shu davr avlodining tafakkurida qanday muhrulanishini o'ylab ko'rish kerak. Bu bilan zamonaviy ijro usullaridan foydalanmaslik kerak, demoqchi emasman. Milliylik va zamonaviylik o'rta-sidagi muvozanatni topishimiz lozim. Shaxs men folklorimiz estrada yo'nalishida ijro etish ustida ishlayapman. Albatta, bu yo'lda ko'p mehnat qilish, izlanish kerak. Ayrimlarga o'xshab, tezda mashshur bo'lib ketmasiz. Ammo yakunni natija o'zini oqlaydi.

Suhbatdoshimizdan "Bugungi yoshlarni madaniy terordan qanday himoya qilish mumkin?", deb so'radik. — Xorazmda bo'lganimda har bir xonadonda tor boriligi e'tiborimni tortdi, - deydi V.Ermatov. — U yerda oddiy inson ham tor chertib, u yoki bu murakkablikdagi milliy qo'shiqni kuylab berishi mumkin. Tabiyiki, yosh avlod buni ko'rib, milliy ohanglar sehrini qabiga joylab ulg'aymoqda. Shu bois xorazmcha qo'shiqlarni xorazmlardan ziyyoda qilib ijro etish qiyin. Ular kuyni yurakdan his qildi. Biz ham yoshlarga bolalgidan folklor va milliy

#### Mulohaza uchun mavzu

san'atimizning boshqa yo'nalishlarini o'rgatib borishimiz kerak.

Mazkur tajriba Prezidentimizning 2022-yil 2-fevraldaqagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ham o'z aksini topgan. Unda xususan, umumiyo rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o'rgatilishi hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatlari (shahodatnomaga) tegishli qayd kiritilishi belgilangan. Hujjatga muvofiq, musiqa fani o'qituvchilarining milliy cholg'ularidan kamida bittasini, 2023/2024-o'quv yillardan boshlab esa kamida uchtasini chala olish mahoratiga ega bo'lishi majburiy hisoblanadi.

Agar bu hujjat lozim shaklda ishlaganida, balki suhbатdoshimiz aytgan fikrlar amalga oshardi. Ammo uning ijrosiga qiziqib ko'rganimizda, aksini ko'rdik. Birinchidan, maktablarda musiqa darsi hamon haftasiga bir saat o'tilyapti. Bu 30 nafr o'quvchisi bor sindfa har bir bola cholg'u asbobini chalib ko'rish uchun haftada o'rtacha 1,5 minut beriladi degani. O'qituvchi to'garak tashkil qilishi ham mumkin, lekin hozirgi zamonda butun sindfa unda qatnashadi, deb aya olamizmi? Tabiiyki, shahodatnomaga tegishli qaydini kiritish masalasi ham kechikmoqda. Qarorda esa muddatlar aniq qilib belgilangan.

Mavzuga qancha chuqurlashsak, muammoning ildizi ham shuncha chuqurlashsak, yo'g'onlashib bormoqda. Eng qiziq'i, ularning ayrimlariga o'z vaqtida yechimlar ishlab chiqilgan, qarorlar qabul qilingan, biroq amaliy ish kutilganide emas.

#### "DO'PPİ" FENOMENI